**Annotatsiya.** Mazkur maqolada zamonaviy jamiyatda ommaviy axborot vositalarining imidj shakllanishi va ijtimoiy fikrni yo'naltirishdagi o'rni kompleks tahlil qilinadi. Media bugungi kunda nafaqat axborot tarqatuvchi mexanizm, balki shaxs, tashkilot, davlat va ijtimoiy guruhlar haqidagi tasavvurlarni yaratish va mustahkamlashda faol ishtirok etuvchi ijtimoiy institut sifatida namoyon bo'lmoqda. Tadqiqotda imidj tushunchasining mohiyati, uning turlari hamda media orqali shakllanish mexanizmlari yoritiladi. Maqolada agenda-setting, framing va cultivation nazariyalari asosida media kontentining jamoatchilik ongiga ta'siri izohlanib, ijtimoiy fikrning qanday shakllanishi va boshqarilishi ilmiy asosda tahlil qilinadi. Xususan, media orqali yaratiladigan ramkalar, vizual materiallar va axborotning taqdim etilish uslubi imidjga bevosita ta'sir ko'rsatishi ko'rsatib beriladi. Shuningdek, O'zbekiston va xalqaro tajriba misolida siyosiy, milliy, gender va brend imidjlarining media ta'sirida shakllanish jarayonlari amaliy misollar orqali ochib beriladi. Tadqiqot natijalari media savodxonligini oshirish va axborot maydonida ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirish zarurligini asoslaydi.

**Kalit so'zlar:** media, imidj, ijtimoiy fikr, ommaviy axborot vositalari, agenda-setting, framing, cultivation nazariyasi, jamoatchilik ongi, siyosiy imidj, milliy imidj, media ta'siri, ijtimoiy tarmoqlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I2Y2026N22>

**Kirish.** Zamonaviy jamiyatda media (ommaviy axborot vositalari) insonlarning dunyoqarashini, qadriyatlarini va ijtimoiy munosabatlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Media vositalari shunchalik kuchli kuchga aylanganki, ular nafaqat ma'lumot

uzatuvchi vosita, balki shaxslar, brendlar, siyosatchilar va guruhlarining imidjini shakllantiruvchi va ijtimoiy fikrni boshqaruvchi vosita sifatida faoliyat yuritmoqda. Imidj — bu inson yoki tashkilot haqidagi ijtimoiy ongda shakllanadigan rasm, obraz yoki tushuncha bo'lib, bu rasm aksariyat hollarda media orqali yaratiladi. Aynan media vositalari orqali odamlar ma'lum bir shaxs, guruh yoki hodisa haqida dastlabki taassurotga ega bo'lishadi, bu esa ularning keyingi fikr va qarorlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi[1].

Media – bu faqat ma'lumot beruvchi emas, balki ijtimoiy ongni shakllantiruvchi vositadir. Imidj media orqali yaratilib, ommaning shaxs yoki hodisa haqidagi qarashlariga ta'sir etadi. Ijtimoiy fikr esa ushbu imidj asosida shakllanadi. Shuning uchun media vositalarining kontent tanlovi, vizual taqdimoti va ramkalash uslubi ijtimoiy ongga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Media imidj va ijtimoiy fikrni shakllantirishda qudratli vosita, ammo uni suiiste'mol qilish jamiyatga zarar keltiradi[2].

Media (ommaviy axborot vositalari, shu jumladan TV, gazeta, ijtimoiy tarmoqlar va internet) imidj shakllanishida va ijtimoiy fikrni boshqarishda markaziy rol o'ynaydi. Masalan, media orqali yaratilgan “pseudo-muhit” (yolg'on muhit) odamlarning haqiqatni qanday idrok etishini o'zgartiradi, bu esa ijtimoiy fikrni manipulyatsiya qilishga imkon beradi. Akademik tadqiqotlarda, bu mavzu XX asrning boshlaridan beri o'rganiladi, masalan, Uolter Lippman (Walter Lippmann) tomonidan taklif etilgan “public opinion” nazariyasi asosida. Lippman media jamiyatni “tasvirlar” orqali boshqarishini ta'kidlagan: “Odamlar dunyoni to'g'ridan-to'g'ri emas, balki media yaratgan tasvirlar orqali ko'radi. Bu jarayonning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar (social media), televideniye va internet media orqali ma'lumotlar tez tarqalib, jamoatchilik fikrini tezda o'zgartirishi mumkin. Masalan, siyosiy imidjlar (rahbarlarning obrazi) yoki milliy imidjlar (davlatning xalqaro tasavvuri) media ta'sirida shakllanadi[3].

Media (lotincha “medium” – vosita) – bu ma'lumotni keng ommaga yetkazuvchi vositalar majmuasidir[4].

U quyidagi turlarni o'z ichiga oladi:

1. An'anaviy media: Televideniye, radio, gazetalar, jurnallar.
2. Raqamli media: Internet saytlari, ijtimoiy tarmoqlar (masalan, Twitter, Instagram, Telegram), striming platformalari.
3. Yangi media: Bloglar, vloglar, podkastlar va fuqarolar jurnalistikasi.

Media nafaqat ma'lumot tarqatadi, balki jamiyatning qarashlari va qadriyatlarini shakllantirishda faol ishtirok etadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, global miqyosda odamlarning 80 % dan ortig'i yangiliklarni media orqali oladi, bu esa uni ijtimoiy fikrning asosiy manbai qiladi[5]. O'zbekistonda milliy telekanallar (O'zbekiston, Yoshlar) va ijtimoiy tarmoqlar (Telegram, Instagram) aholining asosiy axborot manbai hisoblanadi.

Imidj nima?

Imidj – bu shaxs, tashkilot, brend yoki davlat haqidagi jamoatchilikdagi tasavvur yoki obraz. U quyidagi turlarga bo'linadi[6]:

1. Shaxsiy imidj: Siyosatchi, taniqli shaxs yoki oddiy fuqaroning jamiyatdagi obrazi.
2. Tashkiliy imidj: Kompaniya yoki tashkilotning reputatsiyasi (masalan, Apple'ning “innovatsion” imidji).
3. Milliy imidj: Davlatning xalqaro maydondagi tasavvuri (masalan, O'zbekistonning “barqaror rivojlanayotgan davlat” imidji)[7].

#### 4. Ijtimoiy imidj: Muayyan guruhlarning (ayollar, yoshlar) jamiyatdagi tasavvuri.

Imidj ko'pincha sub'yektiv bo'lib, u haqiqatdan ko'ra odamlarning tasavvuri va his-tuyg'ulariga bog'liq. Masalan, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, jamoatchilikning 60 % dan ortig'i shaxs yoki tashkilot haqidagi fikrini media ta'sirida shakllantiradi. Media va imidj o'rtasidagi bog'liqlik ikki tomonlama ishlaydi. Media imidjni shakllantiradi. Media ma'lumotni qanday taqdim etishi (ton, kontekst, ramka) orqali shaxs yoki tashkilotning imidjini yaratadi yoki o'zgartiradi. Masalan, ijobiy yangiliklar shaxsni "muvaffaqiyatli" sifatida ko'rsatsa, salbiy xabarlar "ishonchsiz" imidjini shakllantiradi[8].

Media vositalari orqali ijtimoiy fikr shakllanishi. Ijtimoiy fikr — bu jamiyatdagi odamlarning biror mavzu, shaxs yoki hodisaga nisbatan umumiy qarashlari yig'indisidir. Media bu fikrni quyidagi yo'llar bilan shakllantiradi[9]:

- Dominant fikrlarni kuchaytirish: ko'p marta takrorlash orqali bir fikr "to'g'ri" deb qabul qilinadi;

- Oppozitsion fikrlarni chetlab o'tish: muqobil qarashlarga joy bermaslik orqali ijtimoiy muvozanat buziladi;

- Yagona manzara yaratish: har xil voqealar bitta ideologiyaga muvofiq yoritiladi;

**Adabiyotlar sharhi.** "The Political Socialization of the People in Uzbekistan: Media Presence and the Absence of Media Literacy" — Sherzodkhon Kudratkhoja. Ushbu maqolada aholi, ayniqsa yoshlar, O'zbekiston mediasining siyosiy sotsializatsiyadagi roli tahlil qilinadi. Media ko'pligi va unga kirish imkoniyati mavjudligi, lekin media savodxonligining pastligi tufayli, odamlar ko'pincha propaganda yoki noto'g'ri ma'lumotdan sezilarli darajada ta'sirlanishi, imidj shakllanishidagi manipulyatsiya ehtimoli oshishi ko'rsatilgan[10].

"Building a Positive Image of Uzbekistan as a Tourist State" — Bektosh Berdiyev. Bu maqola davlatning turizm sohasida O'zbekistonni xalqaro maydonda ijobiy imidjga ega qilish uchun media strategiyalarini qanday olib borayotganini ko'rib chiqadi. Xorijiy ommaviy axborot vositalari va mahalliy media orqali O'zbekistonning tarixiy, madaniy, tabiiy boyliklarini yoritish, brend sifatida "turist uchun jozibador davlat" obrazini shakllantirishdagi usullar[11].

"Development trends of state policy on women in Uzbekistan and its media coverage" — Gulnora Zakirova. Bu ishda davlat siyosati, media yoritishi va jamiyatdagi ayollar imidji o'rtasidagi bog'lanish tahlil qilingan. Xususan, media matnlarida ayollarga oid stereotiplar, ular qanday rollarda, qaysi fazilatlar bilan ko'proq ta'riflanadi, va jamiyatda ayollarning ijtimoiy maqomi qanday aks etadi degan savollarga javob izlangan.

"Principles and Perspectives of Formation of Uzbekistan's Image in the Foreign and National Mass Media" — Beruniy Alimov O'zbekiston mustaqillikka erishgan yillardan boshlab, O'zbekiston media orqali qanday rasmiy davlat imidjini shakllantirgan, milliy va xalqaro media tomonidan bu obraz qanday ifodalangan, konseptual yondashuvlar va strategiyalar qanday bo'lganligi tahlil qilgan[12].

"The Role of the Mass Media in Forming the Information Space in Uzbekistan" — Dilbar A.Isayeva maqolasida media va axborot makonining shakllanishi, ijtimoiy guruhlar (yoshlar, urban/rural) media vositalaridan qanday foydalanadi, media orqali axborot oqimi qanday va uning ijtimoiy ongga ta'siri muhokama qilingan[13].

"The Role of the Mass Media in the Formation of Political Consciousness of the Youth of Uzbekistan" — Ibodulla Kungirov Yoshlarning siyosiy ongini media qanday shakllantiradi,

siyosiy identitet va imidjga yoshlar orasida media orqali qanday tasirlar borligi ko'rib chiqilgan[14].

“Country Image in COVID-19 Pandemic: A Case Study of China” — Huimin Chen va boshqalar. Ushbu tadqiqotda pandemiya davrida Xitoy davlatining xalqaro miqyosdagi imidji qanday o'zgargani tahlil qilingan. Twitter ma'lumotlari, sentiment tahlili usullari (aspect-based sentiment analysis) orqali ijobiy/negativ ma'lumotlar, ideologik jihatlar qanday ko'proq tarqalganligi ko'rsatilgan. Bu misol media orqali davlat obrazining global maydonda qanday shakllanishini ko'rsatadi[15].

“Studying the Media, Public Opinion, and Foreign Policy in International Crises: The United States and the Bosnian Crisis, 1992–1995” — Yaeli Bloch Elkon (2007) Yugoslav urushi paytida AQSh matbuoti, davlat siyosati va ommaviy fikr o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ko'rsatadi. Media qachon va qanday qilib tomoshabin fikrini shakllantira boshlaydi, rasmiy bayonotlar, editorialar, yangiliklarda qaysi ramkalar ustun bo'ladi degan tahlillar mavjud[16].

“The Influence of Media on Public Perceptions: Case Study of Pakistan's Nuclear Program” — Nida Shahid Xalqaro media va mahalliy media namoyishlari orqali qanday qilib bir davlatning yadroviy dasturi xalqaro hamjamiyatda va ichki omma fikrida qanday qabul qilinishini tahlil qiladi. Propaganda, framing, media bias kabi elementlar muhim rol o'ynaydi[17].

“Media, Public Opinion, and the ICC in the Russia–Ukraine War” — Senthana Selvarajah & Lorenzo Fiorito urush kontekstida media xabarlarini kontent tahlili orqali ko'rib chiqadi: xalqaro jurnalistika, framing, ramkalar urush haqidagi xabarlarni qanday shakllantiradi va omma fikri qanday yo'naltiriladi[18].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda ommaviy axborot vositalarining imidj shakllanishi va ijtimoiy fikrga ta'sirini aniqlash maqsadida kompleks ilmiy yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik usullar uyg'unlashtirildi. Avvalo, ilmiy adabiyotlar tahlili orqali media, imidj va ijtimoiy fikr tushunchalarining nazariy asoslari o'rganildi hamda agenda-setting, framing va cultivation nazariyalarining mazkur mavzuga tatbiq etilish imkoniyatlari aniqlab olindi. Shuningdek, qiyosiy tahlil usuli yordamida O'zbekiston va xorijiy tajribalar solishtirilib, media orqali shakllangan siyosiy, milliy va ijtimoiy imidjlar o'rtasidagi umumiy va farqli jihatlar tahlil qilindi.

Empirik qismda sifatli kontent tahlili metodidan foydalanilib, milliy va xalqaro ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan materiallar mazmuni o'rganildi. Xususan, media matnlarida qo'llanilgan ramkalar, vizual tasvirlar va axborotni taqdim etish uslublarining imidj shakllanishiga ta'siri tahlil qilindi. Tadqiqot davomida umumlashtirish va mantiqiy xulosa chiqarish usullari qo'llanilib, media kontentining jamoatchilik ongiga ta'sir mexanizmlari ilmiy asosda yoritildi. Ushbu metodologik yondashuv tadqiqot natijalarining izchilligi va ishonchliligini ta'minlashga xizmat qildi.

**Natija va muhokama.** Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, media orqali ayollar imidji (masalan, filmlarda “zaif” tasvir) jamoatchilik fikrini shakllantiradi, bu gender stereotiplariga olib keladi. Zamonaviy ijtimoiy tarmoqlarda bu yanada kuchli: Instagram orqali “mukammal hayot” imidji shakllanib, yoshlarning o'z imidjini o'zgartirishiga sabab bo'ladi[19].

**1-jadval. Media orqali imidj va ijtimoiy fikrga ta'sir etuvchi omillar**

| <b>Omil</b>           | <b>Ta'siri</b>                                                               |
|-----------------------|------------------------------------------------------------------------------|
| Kontent sifati        | Yaxshi yozilgan, ishonchli ma'lumotlar ijobiy imidj yaratadi                 |
| Vizual materiallar    | Suratlar, video va dizayn odam ongida kuchli taassurot qoldiradi             |
| Media manbai          | Ishonchli media orqali berilgan imidj ko'proq qabul qilinadi                 |
| Auditoriya xususiyati | Yosh, jins, madaniyatga qarab imidj turlicha qabul qilinadi                  |
| Teskari aloqalar      | Fikrlar, kommentariyalar ijtimoiy fikr shakllanishiga bevosita ta'sir qiladi |

Media vositalari orqali imidj va ijtimoiy fikr shakllanishi bir qator muhim omillar bilan belgilanadi. Ushbu omillar axborotning qanday qabul qilinishi va jamoatchilik ongida qanday tasavvur hosil bo'lishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Avvalo, kontent sifati imidj shakllanishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Mazmunan puxta, ishonchli va mantiqiy tuzilgan axborot auditoriyada ijobiy tasavvur uyg'otadi hamda media manbaiga nisbatan ishonchni oshiradi. Aksincha, yuzaki yoki noto'g'ri ma'lumotlar salbiy imidj paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. Vizual materiallar — suratlar, videolar va dizayn elementlari — axborotni tez va samarali qabul qilishga yordam beradi. Vizual obrazlar odam ongida kuchli taassurot qoldirib, imidjning qisqa vaqt ichida shakllanishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, raqamli va ijtimoiy media muhitida vizual kontentning ta'siri yanada kuchli namoyon bo'ladi. Media manbaining ishonchligi ham imidj shakllanishida muhim rol o'ynaydi[20]. Obro'li va professional ommaviy axborot vositalari orqali berilgan axborot jamoatchilik tomonidan ko'proq qabul qilinadi va ishonchli deb baholanadi. Shuningdek, auditoriya xususiyatlari — yosh, jins, madaniy muhit va ijtimoiy tajriba — media xabarlarining talqiniga ta'sir etadi. Bir xil axborot turli guruhlar tomonidan turlicha qabul qilinishi mumkin. Nihoyat, teskari aloqalar, ya'ni izohlar va munosabatlar ijtimoiy fikr shakllanishida muhim ahamiyat kasb etib, media orqali yaratilgan imidjni mustahkamlashi yoki o'zgartirishi mumkin[1-jadval].

**Siyosiy imidj:** Saylov kompaniyalarida nomzodlar haqida mediadagi ijobiy/qarshi chiqishlar ijtimoiy fikrga katta ta'sir qiladi. Masalan, ijobiy chiqishlar odamlarning unga ovoz berishga moyilligini oshiradi[21].

**Brend imidji:** Kompaniyalar media orqali o'z mahsulotlarini qanday tanishtirsa, iste'molchilar ham shunday qabul qiladi (premium, ekologik, qulay va h.k.).

**Shaxsiy imidj (influencerlar):** Mashhur blogerlar hayot tarzini namoyon qilib, odamlarning kiyim, ovqatlanish, fikrlash tarzi kabi omillarini o'zgartiradi.

**Jamiyatdagi stereotiplar:** Media ayollarni faqat uy ishlariga bog'liq ko'rsatsa, bu ayollar haqidagi ijtimoiy fikrni cheklaydi.

**O'zbekiston turizm imidji:** qaysi xabarlar (mahalliy/xorijiy media) O'zbekistonni turist davlat sifatida shu paytgacha qanday tasvirlagan? Vizual kontent (sayyohlik fotosuratlar, videolar), press-revizlar, davlat kompaniyalari.

**Ayol imidji:** O'zbekiston mediasida ayollar qanday rollarda ko'rsatiladi — siyosiy arbob, hunarmand, uy bekasi, sportchi va hokazo, hamda ularning ommaviy fikrdagi o'rni.

Bu nazariya 1972-yilda Maksuell Mak Komb va Donald Shoning tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, media odamlarga "nima haqida o'ylash kerakligini" aytishini ta'kidlaydi, ammo "qanday o'ylash kerakligini" emas. Media orqali ko'proq yoritiladigan masalalar jamoatchilik fikrida ustunlikka ega bo'ladi, bu esa imidj shakllanishiga olib keladi. Masalan, agar media

muayyan siyosiy voqeani doimiy ravishda muhokama qilsa, u voqeaning imidji (masalan, “muvaffaqiyatsizlik” yoki “muvaffaqiyat”) jamiyatda mustahkamlanadi[22].

Nazariyaga ko'ra, media “birinchi darajali agenda-setting” (masalalarni tartibga solish) va “ikkinchi darajali agenda-setting” (masalalarni baholash) orqali ishlaydi. Birinchi darajada media qaysi mavzularni muhim deb ko'rsatadi (masalan, iqlim o'zgarishi haqida ko'p xabar bersa, u jamoatchilik fikrida muhim bo'ladi). Ikkinchi darajada esa imidj shakllanadi – masalan, siyosatchining imidji “kuchli rahbar” sifatida tasvirlansa, bu fikr tarqaladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 1968-yilgi AQSh saylovlarida media yoritgan masalalar saylovchilarning fikrlarini 70 % gacha belgilagan. O'zbekiston misolida, media (masalan, milliy telekanallar) orqali iqtisodiy islohotlar imidji shakllanadi: agar ular “muvaffaqiyatli o'zgarishlar” sifatida ko'rsatilsa, jamoatchilik fikri ijobiy bo'ladi[23].

Framing nazariyasi media masalalarni qanday “ramkada” (kontekstda) taqdim etishini o'rganadi. Bu imidj shakllanishining asosiy mexanizmi bo'lib, media orqali voqealar ijobiy yoki salbiy tasvirlanadi. Masalan, bir xil voqea “inqiroz” deb yoritilsa, imidji salbiy bo'ladi; “muammo hal qilish” deb ko'rsatilsa, ijobiy. Nazariya Enton R. Tuchman va Gay Tuchman tomonidan rivojlantirilgan bo'lib, media “epizodik” (voqea asosida) yoki “tematik” (umumiy kontekstda) ramkalar orqali ishlaydi[24].

Tadqiqotlarda ko'rsatilishicha, Framing jamoatchilik fikrini 40-60 % gacha o'zgartirishi mumkin. Masalan, immigratsiya haqidagi xabarlarda “iqtisodiy yuk” ramkasi ishlatilsa, imidj salbiy; “madaniy boylik” ramkasi esa ijobiy bo'ladi. Siyosiy imidjlar uchun bu muhim: AQShda Trampning imidji media ramkalari orqali “populist” yoki “xavfli” sifatida shakllangan[25].

George Gerbner tomonidan 1970-yillarda ishlab chiqilgan bu nazariya media (ayniqsa, televideniye) orqali uzoq muddatli ta'sirni o'rganadi. Media “mean world syndrome” (jahonni xavfli deb ko'rish) orqali imidj shakllantiradi: doimiy zo'rvonlik ko'rsatuvlari tomoshabinlarda jamiyat imidjini “xavfli” qiladi. Nazariyaga ko'ra, “heavy viewers” (ko'p tomosha qiluvchilar) media ta'sirida haqiqatni buzib ko'radi[26].

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, media orqali ayollar imidji (masalan, filmlarda “zaif” tasvir) jamoatchilik fikrini shakllantiradi, bu gender stereotiplariga olib keladi. Zamonaviy ijtimoiy tarmoqlarda bu yanada kuchli: Instagram orqali “mukammal hayot” imidji shakllanib, yoshlarning o'z imidjini o'zgartirishiga sabab bo'ladi.

**Xulosa.** Zamonaviy axborot jamiyatida ommaviy axborot vositalari imidj va ijtimoiy fikrni shakllantirishda hal qiluvchi omilga aylangan. Media bugungi kunda nafaqat axborot uzatuvchi texnik vosita, balki jamiyat ongiga ta'sir ko'rsatuvchi, qadriyatlar, stereotiplar va ijtimoiy tasavvurlarni ishlab chiqaruvchi kuchli ijtimoiy institut sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, shaxs, siyosiy yetakchi, davlat yoki ijtimoiy guruhlar haqidagi tasavvurlar ko'p hollarda bevosita media orqali shakllanib, ommaning qaror qabul qilish jarayoniga ta'sir ko'rsatadi.

Agenda-setting, framing va cultivation nazariyalari asosida media kontentining jamoatchilik ongiga ta'siri tahlil qilindi. Ushbu nazariyalar media qaysi masalalarni muhim sifatida ko'rsatishi, voqealarni qanday kontekstda yoritishi va uzoq muddatli ta'sir orqali qanday tasavvurlarni shakllantirishi mumkinligini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, media tomonidan tez-tez yoritilgan mavzular va ularga berilgan baho jamoatchilik fikrida ustuvorlik kasb etadi hamda imidjning ijobiy yoki salbiy shakllanishiga olib keladi.

O'zbekiston va xalqaro tajriba misollari media ta'sirining amaliy jihatlarini ochib berdi. Xususan, milliy imidjning shakllanishida turizm, siyosiy islohotlar va ijtimoiy guruhlar tasviri muhim o'rin tutadi. Ayollar imidjining media orqali aks ettirilishi jamiyatdagi gender qarashlariga bevosita ta'sir ko'rsatib, stereotiplarning mustahkamlanishiga yoki aksincha, ularning yemirilishiga sabab bo'lishi mumkinligi aniqlandi. Shuningdek, raqamli va ijtimoiy tarmoqlarning kengayishi imidj shakllanish jarayonini tezlashtirib, ijtimoiy fikrni boshqarish mexanizmlarini yanada murakkablashtirganini ko'rsatdi.

Tadqiqot natijalari media savodxonligini oshirish zaruratini yana bir bor tasdiqlaydi. Auditoriyaning axborotni tanqidiy tahlil qila olish qobiliyati kuchaymasa, media orqali yaratilayotgan sun'iy tasavvurlar va manipulyativ imidjlar jamiyat ongiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois, media faoliyatida ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirish, axborotning haqqoniyligi va muvozanatini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik ongini ongli ravishda shakllantirishga xizmat qiluvchi professional yondashuvlarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

### Adabiyotlar/Литература/References:

1. S. Kudratkhoja, *The Political Socialization of the People in Uzbekistan: Media Presence and the Absence of Media Literacy*, Tashkent, Uzbekistan, 2024.
2. B. Berdiyev, *Building a Positive Image of Uzbekistan as a Tourist State*, Tashkent, Uzbekistan, 2025.
3. G. Zakirova, *Development Trends of State Policy on Women in Uzbekistan and Its Media Coverage*, Tashkent, Uzbekistan, 2021.
4. B. Alimov, *Principles and Perspectives of Formation of Uzbekistan's Image in the Foreign and National Mass Media (1991–2017)*, Tashkent, Uzbekistan, 2018.
5. M. McCombs and D. L. Shaw, "The agenda-setting function of mass media," *Public Opinion Quarterly*, vol. 36, no. 2, pp. 176–187, 1972.
6. D. A. Weaver and M. McCombs, *Journalism and Agenda-Setting*, New Jersey, USA: Lawrence Erlbaum, 1981.
7. G. Tuchman, *Making News: A Study in the Construction of Reality*, New York, USA: Free Press, 1978.
8. R. M. Entman, "Framing: Toward clarification of a fractured paradigm," *Journal of Communication*, vol. 43, pp. 51–58, 1993.
9. D. A. Scheufele, "Framing as a theory of media effects," *Journal of Communication*, vol. 49, no. 1, pp. 103–122, 1999.
10. B. L. Ott and G. Dickinson, *The Twitter Presidency: Donald J. Trump and the Politics of White Rage*, London, UK: Routledge, 2019.
11. G. Gerbner, L. Gross, M. Morgan, and N. Signorielli, "Living with television: The violence profile," *Journal of Communication*, vol. 26, pp. 172–199, 1976.
12. N. Signorielli and M. Morgan, *Cultivation Analysis: New Directions in Media Effects Research*, Newbury Park, USA: Sage Publications, 1990.
13. A. E. Marwick, *Status Update: Celebrity, Publicity, and Branding in the Social Media Age*, New Haven, USA: Yale University Press, 2013.
14. P. Norris, *A Virtuous Circle: Political Communications in Postindustrial Societies*, Cambridge, UK: Cambridge University Press, 2000.
15. K. L. Keller, *Strategic Brand Management*, 4th ed., Harlow, UK: Pearson Education, 2013.
16. C. Abidin, *Internet Celebrity: Understanding Fame Online*, Bingley, UK: Emerald Publishing, 2018.
17. D. A. Isayeva, *The Role of the Mass Media in Forming the Information Space in Uzbekistan*, Tashkent, Uzbekistan, 2022.

18. I. Kungirov, *The Role of the Mass Media in the Formation of Political Consciousness of the Youth of Uzbekistan*, Tashkent, Uzbekistan, 2022.
19. H. Chen *et al.*, "Country image in COVID-19 pandemic: A case study of China," *Journal of Asian Communication*, vol. 31, no. 4, pp. 422–440, 2021.
20. Y. Bloch-Elkon, *Studying the Media, Public Opinion, and Foreign Policy in International Crises: The United States and the Bosnian Crisis, 1992–1995*, Oxford, UK: Oxford University Press, 2007.
21. S. Selvarajah and L. Fiorito, "Media, public opinion, and the ICC in the Russia–Ukraine war," *Global Media Journal*, vol. 21, pp. 55–70, 2023.
22. H. A. Rahman and E. Aoni, "Framing peace in media narratives and the potential of journalism in the Russia–Ukraine conflict," *Peace and Conflict Studies*, vol. 30, pp. 101–120, 2023.
23. *The Chinese vs Western Media Framing on Uygur Conflict*, Beijing, China: *Communication Research Journal*, 2022.
24. W. Lippmann, *Public Opinion*, New York, USA: Macmillan, 1922.
25. D. McQuail, *Mass Communication Theory*, 6th ed., London, UK: Sage Publications, 2010.
26. O'zbekiston Milliy OAV va ilmiy hisobotlar, *Mahalliy misollar va statistik ma'lumotlar (milliy telekanallar va ijtimoiy tarmoqlar tahlili)*, Tashkent, Uzbekistan, 2020–2024.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 2 (6) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).